



## XALQ DEPUTATLARI QO'QON SHAHAR KENGASHI Q A R O R I

2022 йил «29» апрель

VI-47-40-11-166-K/22

Кўкон шаҳар ҳокимлиги

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 yanvardagi “Hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha sektorlar faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4102-son qarori asosida sektor raxbarlarining 2022 yil 1-choragi mobaynida faoliyati yuzasidan xisoboti to‘g‘risida**

Iqtisodiyotda davlatning ishtirokini qisqartirishga, davlat-xususiy sheriklik prinsiplarini rivojlantirishga, investisiya siyosatini faollashtirishga, eksport salohiyatini va tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirishga, erkin tadbirkorlikni rivojlantirish yo‘lidagi byurokratik to‘siqlarni olib tashlashga yo‘naltirilgan bir qator kompleks dasturlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 yanvardagi “Hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha sektorlar faoliyatini yanada takomillashtirish doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4102-sonli qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida bir qator ishlar amalga oshirildi.

1-sektor tarkibiga kiruvchi 16 ta (shundan 2 ta og‘ir hudud 1-Davronbek va 2-Shalddiramoq) mahalla fuqarolar yig‘inlaridagi mavjud 14 210 ta xonadonlarda 67 mingdan ortiq aholi isteqomat qilmoqda.

“Temir daftar”, “Yoshlar daftari” va “Ayollar daftari”ga kiritilgan fuqarolarning bandligini ta‘minlash, ularni ijtimoiy-iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash va tadbirkorlikka jalb etish bo‘yicha 1-sektorda “MAHSUS SHTAB” tashkil etildi va kunlik nazorat tizimi joriy etildi.

Qo‘qon shahridagi nogiron, ehtiyojmand, ko‘zi ojiz va 1 guruh nogironlarining 8 nafariga hokimyat tomonidan 827 mln 600 ming so‘m qiymatga ega bo‘lgan yangi qurilgan ko‘p qavatli uylarning 1 qavatidan 2 xonali uylar to‘liq jihozlari bilan berildi.

16 nafar ko‘zi ojiz nogironlarga yotoqxona uyi ajratildi. Ajratilgan uylarda 856 mln so‘mlik qurilish va rekonstruksiya ishlari amalga oshirilib, uylar to‘liq jihozlar bilan ta‘minlab berildi. Ko‘zi ojiz fuqarolar va ularning farzandlari uchun maxsus kutubxona tashkil etilib, “brayn” usulidagi mahsus kitoblar bilan ta‘minlandi.

Qo‘qon shahridagi mavjud “Umumiy yotoqxonalar”da istiqomat qilayotgan 289 nafar fuqarolarga 219 mln 047 ming 263 so‘mlik moddiy yordam berildi.

“Qizil mahallalar”dagi ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarning 53 nafariga davolanishi uchun 108 mln so‘mlik moddiy yordam ko‘rsatildi. Kam ta‘minlangan va ijorada istiqomat qiluvchi 79 nafar oilalarga 779 mln 46 ming so‘mlik ijara puli to‘lab berildi.

Qo‘qon shahar prokurori rahbarligidagi 2-sektor hududida jami 16 ta mahalla fuqarolar yig‘inlari mavjud bo‘lib, ularda bugungi kunda 10875 ta xonadonda 14044 ta oila, 54152 nafar aholi istiqomat qilib keladi. Hududda jami 31 ta ijtimoiy soha ob‘yektlari, shundan, 8 ta maktab, 1 ta lisey, 9 ta maktabgacha ta‘lim hamda 8 ta sog‘liqni saqlash muassasalari (tibbiyot birlashmasi, shifoxona, poliklinika), Murruvat uyi, Mehribonlik uyi va boshqa muassasalar mavjud.

“Temir daftar” bo‘yicha Pandemiya sharoitida o‘tkazilgan xatlovlar natijasida mahallalardagi mavjud 1538 ta ehtiyojmand oilalardagi fuqarolar “Temir daftar”ga kiritilgan edi. Mazkur oilalardagi ishsiz bo‘lgan mehnatga layoqatli 1433 nafar fuqarolarni ishga joylashtirish orqali “Temir daftar”dan chiqarish rejalashtirilgan.

Sektor hududida “Ayollar daftari”ning 1-bosqichiga kiritilgan 870 nafar xotin-qizlardan 156 nafari ishsizligi, 62 nafar ayollarning boquvchisi yo‘qligi, 120 nafar ijtimoiy yordamga muhtoj 1-2 guruh nogironligi bo‘lgan ayollar, 21 nafar uy-joyini ta‘mirlashga muxtoj 1-guruh nogironligi bo‘lgan ayollar, 23 nafar qaramog‘ida bir va undan ortiq nogironligi bo‘lgan bolalari mavjud yolg‘iz ayollar, 63 nafar tibbiy himoyaga muhtoj ehtiyojmand ayollar, 196 nafar huquqiy yordam olishga muhtoj ayollar, 228 nafar psixologik maslahatga muhtoj ayollar ekanligi ma‘lum bo‘ldi.

Boquvchisini yo‘qotgan ehtiyojmand ayollarning 62 nafariga jami 60,76 mln. so‘mlik moddiy yordamlar ko‘rsatildi.

Ijtimoiy yordamga muhtoj 1-2 guruh nogironligi bo‘lgan ayollarning 120 nafariga 117,6 mln.so‘mlik ijtimoiy yordamlar berildi.

Sektor hududida istiqomat qiluvchi ijtimoiy himoyaga muhtoj ayollarning 19 nafarini yashash xonadoni ta‘mirlab berildi.

Qo‘qon shahar 2-sektor hududidagi “Yoshlar daftari”ga 1212 nafar ishsiz, nogironligi bo‘lgan va ehtiyojmand yoshlar kiritilgan bo‘lib, xozirgi kunga qadar ularning 1025 nafari tegishli yordamlar ko‘rsatilishi natijasida mazkur daftardan chiqarildi

Sektor hududidagi MFYlarda yashovchi 1370 nafar nogironligi bor fuqarolarning barchasi tibbiy yordam ko‘rsatildi, 13 ta nogironlik aravachasi, 540 nafar bemorlarga bepul dori-darmon vositalari, 25 nafar bemorlarga davolash va profilaktika maskanlariga bepul yo‘llanmalar hamda 14 nafar fuqarolarga ortopediya va eshitish moslamalari berildi.

Qo‘qon shahar 3-sektorda jami 17 ta MFY, 11 ming 96 ta xonadon 15 ming 778 ta oila, 62 ming 439 nafar aholi istiqomat qiladi. Hududda jami 35 ta ijtimoiy soha ob‘yektlari, shundan, 10 ta maktab, 1 ta oliy ta‘lim, 1 ta kasb-hunar, 10 ta maktabgacha ta‘lim muassasalari, 5 ta sog‘liqni saqlash muassasalari(poliklinikalar) va boshqa muassasalar mavjud.

3-sektorda 1 ming 753 ta oilalar yordamga muxtojligi sababli “Temir daftar”ga kiritilgan bo‘lib, shundan 1 ming 1613 ta oilalarning oila a‘zolarini bandligini ta‘minlash orqali daftardan chiqarilgan

“Ayollar daftari”ning III-bosqichni shakillantirish bo‘yicha sektor xududidagi 17 ta maxallalar to‘liq xatlovdan o‘tkazilib, 3-sektor xududida istiqomat qiluvchi 10 ming 279 nafar ayollarning 10 ming 219 nafari bilan suxbatlashilib, har biri bilan Anketa so‘rovnomalari o‘tkazildi, 60 nafar ayollar tashqi migrasiyada, 3 nafari sog‘lig‘ini tiklash uchun shifoxonada bo‘lganligi, 1 nafari JIEM.da jazo muddatini o‘tayotganligi va 4 nafari turli sabablarga ko‘ra yashash xonadonida bo‘lmaganligi sababli ular bilan anketa so‘rovnomasi o‘tkazishning imkoni bo‘lmadi. Anketa so‘rovnomasi o‘tkazilgan 10 ming 219 nafar ayollardan 1 ming 182 nafariga individual anketalar to‘ldirilib “Ayollar daftari”ga kiritish bo‘yicha shaxar deputatlar kengashiga takliflar kiritildi.

“Yoshlar daftari”ga 18-30 yoshgacha bo‘lgan 9 ming 439 nafar yoshlar (14,4%) yoshlardan 1 ming 149 nafari kiritilgan bo‘lib, shundan 1 ming 58 tasi (92,0%) ko‘rsatilgan turli yordamlar natijasida daftardan chiqarilgan. Xozirda 94 nafar yoshlar “Yoshlar daftari”da qolmoqda.

2022 yil birinchi choragi davomida 12 ta ommaviy sayyor qabullar o‘tkazildi, ularda jami 132 nafar fuqaro qatnashdi hamda fuqarolardan tushgan 142 ta murojaatlarning 98 tasi ya’ni 69,1 % ijobiy hal qilindi, 39 tasi ya’ni 27,4 % xuquqiy maslaxat berish orqali hal qilindi, 5 ta ya’ni 3,5 % murojaatlar rad etildi

4-sektorda 18 ta mahalla, 15 524 ta xonadon bor. Ularda 19 299 ta oila istiqomat qiladi, aholi soni 72 815 nafarni tashkil etadi.

2022-yil 1-chorakda PF-6038-sonli Farmonga asosan jami 876 ta oilalarning 124 nafar a’zolariga 865 ming so‘mdan jami 107 mln. 260 ming so‘m miqdorda, PQ-4815-sonli Farmonlari bilan “temir daftar”dagi 107 ta fuqarolarning 16 yoshga to‘lmagan bolalarining 22 nafariga 500 ming so‘mdan jami 11 mln so‘m miqdorda bir martalik yordam, yashash sharoiti og‘ir va moddiy ko‘makka muxtoj 128 nafar fuqorga “Maxalla xayriya jamoat fondi” ga xat orqali murojaat etib jami 73mln 643 ming miqdordagi pul mablag‘lari ajratib berildi.

Davlat soliq qo‘mitasi raisi tashabbusi bilan tashkil etilgan ishsiz yoshlarni ish bilan ta‘minlash va yoshlarni tadbirkorlikka yo‘naltirish chora-tadbirlari dasturi asosida 4-sektor xududida istiqomat qiluvchi 31 nafar yoshlarga xar biri 6 mln 500 ming so‘mdan xami qiymati 201 mln 500 ming so‘m miqdordagi inkubator moslamasi subsidiya asosida topshirildi.

“Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari”da ro‘yxatda turuvchi yoshlar va ayollarga uyda o‘tirgan xolda oilaga daromad olib kelish va oilani kambog‘olchilikdan chiqarish uchun 15 ta fuqaroning xar biri 7 mln so‘mdan jami 105 mln so‘mlik tikuv mashinalari berildi.

Yashash sharoiti og‘ir, boquvchisini yo‘qotgan yoki gurux nogironligi bo‘lgan 20 ta yoshlarning jami 113 mln so‘m miqdordagi kontrakt to‘lovlarning 50% miqdori to‘lab berildi.

Qo‘qon shahridagi 4 ta sektor rahbarlarining amalga oshirilgan ishlari yuzasidan “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 24-moddasiga muvofiq xalq deputatlari Qo‘qon shahar Kengashi,

**QAROR QILADI:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 yanvardagi “Hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha sektorlar faoliyatini yanada takomillashtirish doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4102-sonli qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida Qo‘qon shahridagi 4 ta sektor rahbarlarining axboroti ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Sektor rahbarlariga:

- shaharni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha 2021 yilda yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni qisqa muddatlarda bartaraf etish, shuningdek o‘rganishlar bo‘yicha ishlab chiqilgan “yo‘l xarita”larini o‘z vaqtida samarali ijrosini ta‘minlash;

- shaharda hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni ta‘minlash bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumatining Farmon, qaror va farmoyishlarida hamda tasdiqlangan maqsadli dasturlar doirasida yangi ish o‘rinlari yaratish, investision loyihalarni amalga oshirish, xorijiy, shu jumladan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri horijiy investisiyalarni jalb etish, mahalliy byudjetga qo‘shimcha tushumlarni ta‘minlash, eksport prognoz ko‘rsatkichlari, chorvachilik, parrandachilik va shu kabi boshqa sohalar uchun belgilangan ko‘rsatkichlar ijrosini ta‘minlash;

- xar bir sektordagi mahalla fuqarolar yig‘inlari kesimida kommunal qarzdorliklarni so‘ndirish, “temir daftar”, “ayollar daftari” va “yoshlar daftari”ga kiritilgan fuqarolar bilan tizimli ishlash, ushbu daftarlardan chiqarilgan fuqarolarni kelgusi faoliyatlari bilan tanishib borish vazifalari yuklatilsin.

3. Olib borilgan ishlar natijasida 3-sektor tarkibidan 5 ta oila ko‘chib ketganligi sababli, 10 ta yakka yolg‘iz yashovchi fuqaro vafot etganligi sababli, 44 ta oilalarning doimiy daromad manbayiga egaligi, bandligi ta‘minlanganligi, oilaviy sharoiti yaxshiligi sababli, 26 ta oilalar daftarga noto‘g‘ri kiritilganligi, bunday fuqarolar sektor xududida mavjud emasligi sababli 84 ta oilalar “Temir daftar” elektron platformasidan chiqarishga rozilik berilsin.

4. Shahar hokimi o‘rinbosari B.Xasanova, mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi boshlig‘i B.Po‘latov va yoshlar ishlari agentiligi Qo‘qon bo‘limi A.Yunusovlarga MFYlar bilan xamkorlikda “temir daftar”, “ayollar daftari” va “yoshlar daftari”ga kiritilgan axoli murojaatlarini taxlil qilish, fuqarolarni qiynab kelayotgan muammolarini sektorlar bilan birgalikda keng muxokama qilish va yechimini topish vazifasi yuklatilsin.

5. Xalq deputatlari shahar Kengashining doimiy komissiyalar raislariga:

- shakllantirilgan muammolarni samarali va o‘z vaqtida hal etish bo‘yicha “yo‘l xaritalari” ijrosi yuzasidan xalq deputatlari tuman Kengashida har chorakda hisobotlarini eshitalishini ta‘minlash;

- hisobotlarni eshitishda sektor rahbarlarining tegishli davrdagi faoliyatini o‘rganish orqali ular faoliyatini tanqidiy baholash hamda sektorlar faoliyatini takomillashtirish yuzasidan takliflar berib borish vazifalari yuklatilsin.

6. Mazkur sessiya qarori ijrosini ta‘minlash shahar hokimining barcha o‘rinbosarlari va bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari shahar Kengashi doimiy komissiyalari raislari zimmasiga yuklansin.

**Kengash raisi**



**M.Usmanov**